

MAMLAKATIMIZ IQTISODIYOTINI RIVOJLANTIRISHDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNI AHAMIYATI

Usmonova Maftuna Shuxratovna
Buxoro Davlat Universiteti
Iqtisodiyot va turizm fakulteti
1-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni O'zbekiston hududida rivojlantirish hamda iqtisodiyotni rivojlantirishdagi o'zini haqida qisqacha ma'lumot berib o'tilgan.

Kalit so'zlar: tadbirkorlik, erkin bozor, kichik biznes, bozor iqtisodiyoti, infratuzilma, modernizatsiyalash.

Shavkat Mirziyoyev: "Tadbirkorlikni jadal va yanada keng rivojlantirish uchun barcha sharoitlarni yaratish – eng muhim vazifamizdir".¹Bugun Yangi O'zbekiston iborasini faxr bilan aytayotganimiz bejiz emas. Boisi, yaqin 4-5 yil oldin ana shu ikki jumla zamirida boshlangan ulkan islohotlar odamlarning o'z imkoniyatlaridan keng foydalanish, istalgan sohada yangiliklar yaratishga qo'rqmay qadam tashlash, eng muhimi, mustaqil tadbirkor sifatida o'zini sinab ko'rish imkoniyatini beryapti. Bu borada, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning 2019-yil Oliy Majlisga yo'llagan Murojaatnomasida "Haqiqatan ham, biz faqat faol tadbirkorlik, tinimsiz mehnat va intilish orqali taraqqiyotga, farovon hayotga erisha olamiz", deya ta'kidlagan so'zlari xalqimizga yanada ishonch, kuch berdi. Eng avvalo, iqtisodiyotning etakchi soha va tarmoqlarida kichik tadbirkorlik ulushining oshishi iqtisodiy o'sish va ijtimoiy barqarorlik ta'minlanishining mustahkam poydevori hisoblanadi. Ma'lumki, tadbirkorlik — bu tashabbus va faollik asosida kelgusida yuz berishi mumkin bo'lgan turli xatarlarni hisobga olib, mas'uliyat va javobgarlik bilan amalga oshiriluvchi iqtisodiy faoliyatdir. U erkinlik, ijodkorlik hamda raqobat muhiti uyg'unligida juda katta bunyodkorlik kuchini hosil qiladi. Ayniqsa, faoliyat ko'lami jihatidan nisbatan ixcham bo'lgan kichik tadbirkorlik iqtisodiyotdagi kon'yunkturaviy o'zgarishlarga tezlik bilan moslasha olish, iste'molchining did va qiziqishlarini anglash va e'tiborga olish, ichki imkoniyatlardan to'liq foydalanish, raqobat muhitini kuchaytirgan holda iqtisodiyotga jo'shqinlik baxsh etish kabi xususiyatlari bilan ajralib turadi. O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotini mustahkamlash, har tomonlama rivojlantirib borish, iqtisodiyotni xususan bozor munosabatiga o'tishni tezlashtiruvchi eng asosiy yo'llardan biri bu kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish hisoblanadi.

¹ <https://uzreport.news/politics/shavkat-mirziyoyev-tadbirkorlikni-jadal-va-yanada-keng-rivojlantirish-uchun-barcha-sharoit>

Shuning uchun ham tadbirkorlikni rivojlantirishga, uni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishi, xususiy tadbirkorlikda tashabbus ko'rsatish, uni rag'batlantirishga bag'ishlangan bir qancha qonun, farmon va qarorlar qabul qilindi. Mamlakatimizda olib borilayotgan iqtisodiy ijtimoiy islohotlarning tub negizini tadbirkorlik, omilkorlik va ishbilarmonlik xislatlarisiz tasavvur etish qiyin. Erkin bozor munosabatlarining keng ravnaq topishi kishilar hayotida, ularning turmush tarzida, ma'naviy va hayotiy ko'nikmalarida namoyon bo'lmoqda. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlanishi nafaqat iqtisodiyotni muttasil rivojlanishi, xo'jalik aloqalarini tuzatish, raqobatni rivojlantirish va iste'mol bozorini to'ldirish bilan bog'liq bo'lgan iqtisodiy maqsadlarni ham ta'minlamoqda. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning afzallik tomonlari: bunda bozor kon'yunkturasiga tez moslashish, talabning o'zgarishini tez ilg'ash, faoliyatning bir turidan boshqasiga kam xarajat evaziga tezda moslashish imkoniyatlari yaratiladi. Faoliyatning ushbu sektori bandlik muammosini hal qilish, ishsizlik darajasini pasaytirish, tadbirkorga o'zining erkin mehnati natijalaridan moddiy manfaatdorligini oshirishda juda muhimdir. Bugungi kunda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyati aholi daromadining turmush darajasini oshirishning barqaror manbai bo'lib bormoqda. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni barqaror rivojlantirish uchun zarur bo'lgan qulay shart-sharoitlarni yaratish jamiyatda samarali amal qiladigan bozor munosabatlarini shakllantirish, mulkdorlar sinfini qo'llab-quvvatlash hamda fuqarolik jamiyatining yangi, demokratik institutlarini qaror toptirishning muhim shartidir. Aholi real daromadlarining o'sishi, ichki bozoring mahalliy ishlab chiqarilgan mahsulotlar bilan to'yinish darajasining yuksalishi, mahalliylashgan ishlab chiqarishlar va kichik tadbirkorlikning, shuningdek, aholiga xizmat ko'rsatish sohasining rivojlanishi iqtisodiyotning iste'mol sektori nisbatan barqaror rivojlanishini, aholi real daromadlarining o'sishi va tovar aylanishi o'sishini rag'batlantirdi. Ayniqsa, mamlakat aholisining ko'pgina qismi yashaydigan qishloq joylarida ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish aholi turmush darajasini oshirish nuqtai-nazaridan muhim amaliy ahamiyat kasb etadi. Qishloqda bozor infratuzilmalarini amalda yangidan barpo etish, qishloq joylarida tadbirkorlikni, ishlab chiqarishni tashkil etish va rag'batlantirish va bu sohani boshqarishda jahon tajribalaridan foydalanishni sifat jihatdan mutlaqo yangicha tamoyillar asosida yo'lga qo'yilishi lozim. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojlantirish: kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishning hududiy dasturlarini ishlab chiqish, kichik biznes subyektlari, kasanachilikni, shu jumladan oilaviy tadbirkorlikni iqtisodiy faoliyatlari uchun keng qulayliklar yaratish, qishloq aholisi va tadbirkorlikning iqtisodiy, huquqiy bilimlarini oshirib borishda zamonaviy axborot va kommunikatsion texnologiyalar hamda internet tizimini keng joriy etish, tadbirkorlikni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash dasturlarini amalga oshirishning samarali boshqaruvini tashkil etish, qishloqda bozor infratuzilmalari va

xizmat turlarini barpo etish, kichik biznes subyektlarini texnik va texnologik modernizatsiyalashga erishish, mahsulotlarning yangi turlarini o'zlashtirish va barqaror talabga ega boigan tayyor mahsulotlar tayyorlaydigan kichik korxonalar tashkil etish hamda iqtisodiyot tarmoqlarining turli korxonalar o'rtasidagi kooperatsiya aloqalarini rivojlantirish asosida olib boriladi. Kichik biznes iqtisodiyot va umuman jamiyatni rivojlantirish yo'llarini optimallashtirish uchun katta salohiyatga ega. Kichik korxonaning o'ziga xos xususiyati barcha turdagi resurslardan foydalanishning yuqori intensivligi va ularning sonini optimallashtirishga doimiy intilish, bu nisbatlar uchun eng maqbul shart-sharoitlarni ta'minlashdir. Kichik korxonada ortiqcha uskunalar, xom ashyo va materiallarning ortiqcha zaxiralari, keraksiz ishchilar bo'lishi mumkin emas. Bu holat umuman iqtisodiyotning oqilona ko'rsatkichlariga erishishning eng muhim omillaridan biridir. Tadbirkorlikning ahamiyati shundaki, kichik korxonalar omon qolish uchun qattiq raqobatlashib, bozorning hozirgi sharoitlariga doimo rivojlanib, moslashishga majbur bo'lishadi, chunki mavjud bo'lish uchun yashash uchun mablag' olish kerak, ya'ni boshqalardan ko'ra yaxshiroq bo'lish, foyda olish uchun ularga xususiy tadbirkorlik ko'p jihatdan iqtisodiy o'sish sur'atlarini, aholi bandligi holatini, yalpi ichki mahsulotning tuzilishi va sifatini belgilovchi yetakchi tarmoqlardan biridir. Kichik biznesning rivojlanishi moslashuvchan aralash iqtisodiyotni shakllantirish, mulkning turli shakllarini birlashtirish va raqobatbardosh bozor mexanizmining murakkab sintezini va yirik, o'rta va kichik ishlab chiqarishni davlat tomonidan tartibga solishni amalga oshiradigan iqtisodiyotning yetarli modelini shakllantirish uchun global tendentsiyalarga javob beradi. Xususiy tadbirkorlik – bu bozor iqtisodiyoti sub'ektlari tomonidan belgilangan qonunlar, davlat organlari yoki boshqa vakillik tashkilotlari tomonidan ushbu kontseptsyaning mohiyatini tashkil etuvchi mezonlarga muvofiq amalga oshiriladigan tadbirkorlik faoliyati. O'zbekiston Respublikasida xususiy mulk daxlsizligini himoya qilish, uning iqtisodiyotdagi roli va o'rnini mustahkamlash, ishbilarmonlik muhiti va biznes sharoitlarini yanada yaxshilashga qaratilgan islohotlar izchil va bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni yanada rivojlantirishda quyidagilarga e'tibor berish maqsadga muvofiq bo'ladi:

- soliqqa tortish tizimini mukammallashtirish va tekshiruvlarni qisqartirish;
- tadbirkorlarning iqtisodiy bilim saviyasini oshirish;
- bank-tadbirkor aloqalarini soddalashtirish.

Xulosa qilib aytganda, bugun tadbirkor davlat himoyasida bo'lib, olgan foydasiga to'la egalik qilish, o'zining faoliyat doirasini kengaytirish imkoniyatlariga ega. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlanishi esa milliy iqtisodiyot realsektori takomillashuviga ta'sir qiluvchi asosiy omillardan biri sifatida alohida o'rin tutmoqda.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning mamlakatimiz tadbirkorlari bilan ochiq muloqot//2021-yil 21-avgust
2. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni faoliyatini boshqarish:o`quv qo`llanma/D.Sobirjonova,U.Boymatova,F.Bozorova; O`zbekiston Respublikasi Oliy va o`rta maxsus .-T:”Fan va texnologiya”2012-yil,284-bet
3. Kichik biznes va Tadbirkorlik : o`quv qo`llanma\ M. Boltabayev, M. Qosimova, B. G ‘oyibnazarov,Sh. Ergashxodjayeva, A. Samadov, Sh. Otajonov; O`zbekiston Respublikasi Oliy va o`rta maxsus.-T:”Noshir”2011-yil,280-bet
4. Kichik biznes va Tadbirkorlik : darslik\ D.S.Qosimova; O`zbekiston Respublikasi Oliy va o`rta maxsus.-T:”Innovatsion rivojlanish”2020-yil,328-bet